



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil  
yanvar-sentabr*



## NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI.

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3049,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **51,5** ming kishiga yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1978,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1070,9** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

## Doimiy aholi soni

**3049,0** *ming kishi*

## Tabiiy o'sish

**+53,0** *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

## Shahar

**64,9%**

## Qishloq

**35,1%**


## Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2023- yil yanvar-sentabr, ming kishi



## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2023- yil 1-oktabr holatiga



## Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi.

1-oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2979,3</b>	<b>3049,0</b>	<b>102,3</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	673,8	692,4	102,8
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	133,2	136,2	102,3
Kosonsoy	221,3	226,5	102,3
Namangan	187,1	191,6	102,4
Norin	171,6	175,0	102,0
Pop	230,1	234,6	102,0
To'raqo'rg'on	237,9	243,8	102,5
Uychi	225,8	231,0	102,3
Uchqo'rg'on	180,7	184,5	102,1
Chortoq	209,1	213,6	102,2
Chust	278,2	284,0	102,1
Yangiqo'rg'on	230,5	235,8	102,3


## Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2023- yil 1-oktabr holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **409,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **9,4** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **400,4** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Namangan shahrida **4616,0** kishi, Namangan tumanida **958,0** kishi, To'raqo'rg'on tumanida **903,0** kishi, Norin tumanida **833,3** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Pop tumanida **80,6** kishi, Chust tumanida **302,1** kishini tashkil etgan.

## Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi.

*1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*



**QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR.**



**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti.**

*2023- yil yanvar-sentabr, kishi*

Namangan shahar	16549	32,2 ‰
Chust	5521	26,2 ‰
To‘raqo‘rg‘on	5224	28,9 ‰
Uychi	4736	27,6 ‰
Kosonsoy	4616	27,5 ‰
Pop	4480	25,7 ‰
Yangiqo‘rg‘on	4412	25,2 ‰
Chortoq	4119	26,0 ‰
Namangan	3983	28,0 ‰
Uchqo‘g‘on	3536	25,8 ‰
Norin	3315	25,5 ‰
Mingbuloq	2737	27,1 ‰

2023- yil yanvar-sentabr oylarida **63,2** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **28,0** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **0,9** promillega ko‘payganligini kuzatildi (2022- yilda **27,1** promilleni tashkil etgan).


### VAFOT ETGANLAR

yanvar-sentabr



### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2023- yil yanvar-sentabr, kishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,3** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,0 promillega kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,5** promille bo‘lgan).

### O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi.


2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **58,3** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,5** % i – o‘simtalardan, **6,5** % i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,3** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,6** % i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1** % i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **15,7** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## QAYD ETILGAN NIHOHLAR

yanvar-sentabr



## Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.




- 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **14,3** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,6** promille bo'lgan).



### NIKOHDAN AJRALISHLAR

yanvar-sentabr



### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2023- yil yanvar-sentabr, birlik

Namangan shahar	757	1,5 ‰
To'raqo'rg'on	328	1,8 ‰
Chust	322	1,5 ‰
Pop	309	1,8 ‰
Namangan	258	1,8 ‰
Kosonsoy	246	1,5 ‰
Uychi	242	1,4 ‰
Norin	224	1,7 ‰
Chortoq	223	1,4 ‰
Uchqo'g'on	212	1,5 ‰
Yangiqo'rg'on	196	1,1 ‰
Mingbuloq	155	1,5 ‰

2023- yil yanvar-sentabr oylarida **3,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,0** promille kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida **1,5** promille bo'lgan)

## AHOLI MIGRATSIYASI.

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **2 017** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa **3 517** kishini tashkil etdi.


### Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni.

2023- yil yanvar-sentabr, kishi

	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2 017</b>	<b>3 517</b>
shahar:		
Namangan shahri	769	750
tumanlar:		
Mingbuloq	7	140
Kosonsoy	87	190
Namangan	81	180
Norin	138	376
Pop	152	380
To'raqo'rg'on	157	187
Uychi	180	209
Uchqo'rg'on	171	285
Chortoq	28	208
Chust	134	406
Yangiqo'rg'on	113	206


### JAMI KO'CHIB KELGANLAR.

yanvar-sentabr



### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.


2023- yil yanvar-sentabr, kishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **2,0** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,0** promille kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **0,9** promille bo'lgan).

### JAMI KO'CHIB KETGANLAR.


yanvar-sentabr



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi    ● O'sish sur'ati, % da

### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2023- yil yanvar-sentabr, kishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **3,5** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **1,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **1,7** promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

*Tel: 69 227-84-91*